

**O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH****O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda  
o'qituvchi shaxsi va kreativ yondashuvi**Xurshida Kadirova<sup>1</sup>**Abstrakt:**

Til ta'limida o'qituvchining shaxs sifatidagi roli eng muhim omil sanaladi. Maqolada o'qituvchi shaxsining so'nib qolish sabablari va undan ozod bo'lish usullari bayon qilingan. O'qituvchining ruhiy holati dars samaradorligiga qanchalik ta'sir qilsa, uning obro'si va professional ixlosini shunchalik tushurishi tahlilga tortilgan. Shuningdek, baxtli o'qituvchilarning belgilari sanab o'tilgan. Unga hayotiy misollar keltirilgan. O'qituvchining aktyor bo'lishi kerakligi haqidagi tushunchaga fikr bildirib, samimiylilikni saqlash muhimligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** *O'qituvchining toliqishi, aktyor, jamoaviy ish, baxtli o'qituvchilar, ta'lim falsafasi.*

**Kirish**

Bugungi kunda o'zbek tiliga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligini hisobga olgan holda uni boshqa millat vakiliga tilimizning go'zal taraflarini ko'rsatish, til ta'limni qulaylashtirish siyosat darajasiga ko'tarilar ekan, buning ustida ishlashni davr taqozo qilmoqda. Bunda o'qituvchining roli, til o'rganuvchi yoki o'zga tilli talabanning roli haqidagi muayyan nazariy va amaliy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. So'ngi 20 yil ichida juda katta muammo yuzaga kelmoqda. Yaxshi o'qituvchilar, buyuk o'qituvchilar o'z kasbini tark etayotganligining guvohi bo'lyapmiz. Gap shundaki, vijdonan mehnat qilgan o'qituvchilarni bu kasb juda toliqtiradi. Ammo olingan bilimlardan foydalanish muhimligini va talabalarning tilni mashq qilishi zarurligini anglagan o'qituvchilar bu jarayonga jalb qilinishi, rag'batlantirilishi kerak.

<sup>1</sup>Kadirova Xurshida Batirovna – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti.

**E-mail:** qodirova@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0001-5194-7155

**Iqtibos uchun:** Kadirova, X. 2022. "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda o'qituvchi shaxsi va kreativ yondashuvi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya*. 2(5): 17-25.

O'qituvchi aktyor, murabbiy, psixolog, gid, yo'lboshlovchi va hokazo. Lekin o'qituvchi bu haqda o'ylashdan allaqachon charchagan! Kasbiy charchash degani, o'qituvchilarning yonayotgan sham kabi, bor nurini berishlari, hech narsa qolmaguncha bor kuchlarini berishlari demakdir. Oxirgi 3 yildan 5 yoki 10 yilgacha ishlagan va o'qituvchilikni tashlab ketgan ko'plab o'qituvchilarni ko'rishimiz mumkin. Ular avtomobil savdosi, qurilish... o'qituvchilikdan boshqa hamma narsa bilan shug'ullanishga rozi. Nima uchun bu sodir bo'lyapti?

Albatta, ta'limda har doim maoshdan norozilik, qadrsizlik va hokazo mavjud. Lekin asosiy sabablardan biri kasbning o'zi ekanligini taxmin qilish mumkin. Tilni o'rgatish shunchalik qiyin va, shu bilan birga shunchalik qiziqarli, undan voz kechish ham mushkul.

### **Asosiy qism**

Talabalarga o'zbek tilida muloqot qilishda yordam berishga intilar ekan, o'qituvchi talaffuz bo'yicha, o'qish, yozish, grammatika, nutq va hokazolar bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerakligini anglaydi. Uchuvchilar, hamshiralalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'rta maktab o'quvchilari, kollej talabalari, mutaxassislar va ishbilarmonlarga tilni o'rgatishi mumkin. Va har yili yangi darsliklar, yangi standartlar paydo bo'ladi, jadval yangilanadi, ta'lim jarayoniga qarashlar va yondashuvlar o'zgaradi. O'qituvchilik sohasi doimo rivojlanib bormoqda, o'qituvchi o'zini karuselda o'tirgandek his qiladi va u tezroq va tezroq aylanadi. Qanday qilib professional toliqishdan qochish mumkin? Quyida mazkur masalani biroz yengillatadigan ba'zi omillarga to'xtalib o'tamiz.

**O'qitish – bu jamoaviy ish.** "O'qituvchining toliqishi" ko'plab topshiriqlar, mas'uliyat va doimiy tazyiqlardan kelib chiqqan tushuncha deb atash mumkin. O'qituvchini charchatadigan, limondek siqib suvini chiqaradigan kasbni tanlashga hech kim majbur qilmaganligini va endilikda mashaqqatni faqat o'zi uchun qulay qilishga intilish, kasbidan rohatlanish usullarini yaratish kerakligini ta'kidlash zarur. Kuch olish va ilhomlanishning ko'plab usullari mavjud.

Aksariyat yosh o'qituvchilarning shikoyatlariga duch kelamiz. Aslini olganda o'qituvchilik – bu **jamoaviy ish**. Barcha o'qituvchilar haddan tashqari ish bilan yuklangan. Biroq o'nlab yillar davomida ishlagan tajribali o'qituvchilar ham oz emas, ularning ko'plab tayyor dars rejalari va ajoyib g'oyalari bor. Tushkunlik, sabrsizlik muvaffaqiyatsizlikka olib kelmasdan avval shu tajribali

o'qituvchilardan yordam so'rashlari kerak. Zero, bunday o'ituvchilar savollarga mamnuniyat bilan javob berishadi. Chunki, ular savollarga javob berishni yaxshi ko'radilar. Masalan, hafta kunlarini talabalarga qanday o'qitish haqida kimning fikri bor? Biror o'qituvchi shu mavzuda qo'shiq berishi mumkin. Boshqa bir o'qituvchi haftaning ma'lum bir kunini ifodalovchi rangli qog'ozdan foydalanishini o'rtoqlashadi.

Yana misol: oddiy o'tgan zamonni qanday qilib samaraliroq o'rgatish kerakligini so'rash mumkin. Tabiiyki, gapirishni, o'rgatishni, savollarga javob berishni xush ko'ruvchi bunday shaxslar yordam qo'lini cho'zadi. Biror o'qituvchi metodika bilan o'rtoqlashadi, boshqasi darslikdagi kerakli sahifani ko'rsatadi, uchinchisi o'zining kitob javonidan kerakli papkani topadi va auditoriyada ishlash uchun topshiriqlarni to'kib, ichidan tanlab beradi. O'qituvchi hamkasblari yordami bilan ko'p vaqtni tejashi mumkin. Qolaversa, har bir o'qituvchining fikrini inobatga olgan holda muammoni turli tomonlardan ko'rish imkoni paydo bo'ladi, bu bebaho tajriba. Ko'p o'tmay, kimningdir dialog topshiriqlarini bajarishda yordam berishini va grammatika uchun yana biror hamkasbiga murojaat qilishni bilib olish mumkin, ammo o'qitish yo'nalishi bundan ham ko'proq. Bunda til o'qituvchilari dunyodagi eng ochiq odamlar ekanligini bilib olish mumkin. Fikr almashishni, muhim savollarni berishni, murakkab muammolarga yechim izlashni o'qituvchi yaxshi ko'radi. Tajribali mutaxassislar bilan ijtimoiy tarmoqni qurish o'qituvchining o'ziga ham tajribali va ilg'or o'qituvchi bo'lishiga imkon beradi. Va bir xil maxsus bilimga ega bo'lgani uchun emas, balki u yoki bu savolni kimga berishni aniq bilib olish mumkin.

Bu Genri Fordning hikoyasini eslatadi, u aqlli bo'lish uchun hamma narsani bilish shart emas, balki u yoki bu ma'lumotni qayerdan olishni bilishdir, deb hisoblaydi. Uning so'zlariga ko'ra, pulda bir qator tugmalar bor va o'ng tugmani bosish orqali har qanday savolga javob olishi mumkin. Savollarga javob topish uchun turli xil umumiy ma'lumotlar bilan vaqt sarflash kerak emas, agar kerakli bilim va ma'lumotlarni taqdim etadigan mutaxassislar bo'lsa, boshqa narsalarga chalg'ish kerak emas.

Muvaffaqiyatli o'qituvchi har qanday savolga javob topa oladi, chunki u kimdan nimani so'rashni va javobni qayerdan qidirishni biladi. O'qituvchi sifatidagi faoliyati shu tarzda osonlashadi. Muhimi, yordam beruvchilar tajribaliroq bo'lishi, istalgan vaqtda o'z fikrlari bilan bo'lishishga tayyor odamlar bo'lishi kerak.

**Baxtli o'qituvchi.** Ikki tadqiqotchi Ellen Skinner va Ketlin Edj [Ellen Skinner] o'z-o'zini anglash bo'yicha kitob yozdilar. Va ular odamlarga toliqishdan qochishga yordam beradigan ikkita omil mavjudligini aniqladilar. Biz ularning birinchisi, ya'ni jamoalar tashkil etish yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi yoki professional hamjamiyat deb ataladigan narsa haqida qayd etdik. Endi ikkinchisiga to'xtalamiz.

Aytishlaricha, toliqmaslik uchun o'qituvchilar o'z-o'zini nazorat qilish tuyg'usiga ega bo'lishi kerak. Nima uchun ba'zi o'qituvchilar o'zlarini nazorat qilinayotgandek his qilishadi, boshqalari esa yo'q?

Shubhasiz, o'qituvchida ba'zi narsalarni nazorat qilish mumkin bo'lgan va ba'zi narsalarni nazorat qilish mumkin bo'lmagan narsalar bor. O'qituvchi istalgan makon va zamonda dars berishi muqarrar. Nazorat tuyg'usini saqlab qolish uchun ko'pincha qanchalik nazoratga ega ekanligi yoki qayerda ekanligini emas, balki mavjud narsalar bilan qanday dars o'tish haqida o'ylash muhim.

Bunda o'qituvchilardan ijodkorlik talab etiladi. Baxtli o'qituvchilarning quyidagi jihatlari bo'ladi:

**Birinchidan,** ular imkonsiz narsalarga emas, balki qila oladigan narsalarga e'tibor berishadi. O'qituvchilar ko'p vaqtni berilgan erkinlik miqdoridan bahramand bo'lish uchun o'tkazishi kerak. Hatto materiallar, kitoblar, testlar yoki maosh haqida o'ylamasa ham bo'ladi. O'qituvchi o'zi uchun yarata oladigan ko'p erkinliklar bor. O'zi yoqtirgan o'rgatish uslubini yaratishi, istalgan tajribani o'tkazishi, o'qitish imkoniyatlaridan o'zi rohatlanishi kerak. O'qituvchi, o'ziga yuklangan turli xil nazorat vositalariga qaramay, o'z auditoriyasida o'zi yetakchidir. Unda ajoyib imkoniyat borligi va boshqalarga ta'sir o'tkazish uchun erkin ekanligini his qilishi kerak. O'zlari qila olmaydigan narsalarga e'tibor qaratishga moyil bo'lgan o'qituvchilar odatda eng baxtsizdir. Va o'zlari qila oladigan narsalarga e'tibor qaratadigan o'qituvchilar ko'pincha eng ijodiy va eng qiziqarli bo'ladi.

**Ikkinchidan,** baxtli o'qituvchilar o'zgarishlarni tez qabul qiluvchi bo'ladi. Aslini olganda, ba'zan o'qituvchi istagan yoki qilishingiz zarur bo'lgan ko'p narsalarni amalga oshirish uchun resurslar yetarli bo'lmaydi va bu ayanchli. Ko'pgina mamlakatlarda ba'zi o'qituvchilar darsliklar va yangi texnologiyalar kabi yetarli resurslarga ega emasligidan aziyat chekishadi. Ayrim chekka hududlarda maktablarning tomi bo'lmay, har safar yog'ingarchilik bo'lgani tufayli maktab yopilishi va belgilangan dastur o'zlashtirilmay

qolishi tufayli o'qituvchi maqdasiga erishmagani, o'z imkoniyatlarini ko'rsata olmagan uchun boshqa kasbni, balki o'zi xohlamagan ishni tanlashiga olib keladi. Ayrimlar esa shunchaki proyektor ishlamayotgani yoki internetga kirish imkoni yo'qligidan kuyinishadi. Bu esa dars samarasining tushib ketishiga sabab bo'ladi. Kafedradagi o'qituvchilarning darsdan oldin printer yoki kserokopiyaning buzilib qolgandagi stressini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bularning barchasi o'qituvchini shashtini qaytarishi va o'rgatish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Ammo, agar ayni damda shasht qaytgan bo'lsa, doimo shunday bo'ladi degani emas...

Har doim o'zgarishlarga yuzma-yuz kela olish katta kuch talab etadi. O'z-o'zini nazorat qilishni susaytiruvchi narsalar haqida o'ylashning o'rniga, o'zining muhitini iloji boricha xotirjam qilishga intilish kerak.

Bunga o'xshagan misollarni ta'lim sohasida ko'plab keltirish mumkin. Ayniqsa o'zbek o'qituvchilaridek jon fido insonlar borki, o'z maoshlaridan bo'lsa ham o'z muhitni yaratadi. Atrof-muhit ta'siriga e'tibor qaratmasdan, uni yaxshilashga harakat qilish orqali o'qituvchi optimist va ko'proq o'z-o'zini nazorat qilish tuyg'usiga ega bo'ladi.

**Uchinchidan**, baxtli o'qituvchilar muvozanatni topadilar. Yana bir muammo borki, ba'zan til o'qituvchilarini, doimo o'zlarini o'z kasbiga butunlay baxshida qiluvchilar sifatida ko'rish mumkin. Ular uy vazifalarini tekshirish uchun bir necha kun vaqt sarflashadi. Har bir talaba uchun alohida izoh yozadigan va kechgacha dars rejalarini ko'rib chiqadigan o'qituvchilarni bilamiz. O'qituvchilar o'zlarini butunlay kasbga bag'ishlashsa juda yaxshi. Ammo, buning salbiy tomoni bor. Ayniqsa, har bir ish varag'ini takomillashtirish yoki ulkan afishadagidek kalit so'zini bo'yash uchun son-sanoqsiz soat sarflaydiganlar uchun.

O'qituvchi, avvalo, odam. Inson sifatida o'z qadrini, o'z sog'lig'i va jonini o'ylashga uning odam ekanligini eslatib turish uchun kimdir bo'lishi shart emas. Bolalari bilan muzqaymoq yeyish, turmush o'rtog'i bilan kinoga borish, do'stiga qo'ng'iroq qilish, sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishga haqli bo'lgan odam u. Dunyodagi eng yaxshi o'qituvchilar o'z qalblarini talabalarga berishadi, lekin shu bilan birga o'z hayotlarini ham yaxshi o'tkazadilar va o'zlarini qiziqarli odamlarga aylantiradilar. Sevimli mashg'ulotga ega bo'lish, qandaydir mashg'ulotdan zavqlanish o'qituvchini quvvatlantiradi va doimiy shikoyatlardan xalos etadi.

**To'rtinchidan,** baxtli o'qituvchilar o'qitishning moddiy manfaatini qadrlashadi. O'qituvchilik kasbi ko'pincha katta maoshni kafolatlamaydi. Ammo bu uning mukofotsiz qolganini anglatmaydi. Ba'zan mukofotlar, bonuslar bo'ladi. Talabalarining qozongan muvaffaqiyatlarga e'tibor berilsa, ularning hayotiga ijobiy zavq beradi, ilhomlantiradi. Oxir-oqibat, pul tufayli o'qituvchi bo'lishdan bosh tortganlarga havas qilmay qoladi. Va bu eng muhim narsa. Avvalo, tilning otash ekanligini va har bir o'quvchini olov yoqishga harakat qilayotganligini unutmaslik kerak.

**O'qituvchi artist emas.** O'qituvchi haqidagi metaforalardan biri o'qituvchini aktyor bilan solishtirish bo'lib kelgan. Ammo bu metafora bilan bog'liq muammo shundaki, ko'p jihatdan o'qituvchilarni aktyorlarga qiyoslab bo'lmaydi. O'qituvchilar imo-ishoralarni qo'llashi, butun tanasini, yuzini ishlatishi kerak. Ular o'z o'rganuvchilariga qanday ta'sir qilish haqida o'ylashlari kerak, xuddi aktyor o'z tomoshabinlariga ta'sir qilishi kerak bo'lganidek. Hatto, tuni bilan uy vazifasini tekshirgandan keyin ham o'zlarini yaxshi his qilayotgandek ko'rsatishlari kerak.

Ammo gap shundaki, agar o'qituvchi talabalarga o'zining haqiqiy siyratini ko'rsatmas ekan, o'zi haqida to'g'ri taassurot qoldirishi muammo bo'ladi, bu esa toliqishga to'g'ridan-to'g'ri yo'ldir. Ba'zi o'qituvchilar o'zini juda vazmin tuta bilishadi, ayrimlari jo'shqin va samimiydir. O'qituvchi kim bo'lishingizdan qat'iy nazar, o'z ichki dunyosining eng yaxshisini ko'rsata olishi kerak.

Sham singari o'chib qolmasligi uchun o'qituvchi o'z-o'zini to'g'ri anglashi, o'zini to'g'ri tushunishi kerak. Nima uchun ushbu kasbni tanlaganini, o'zini unda qanday his qilayotganini tushunish juda muhimdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'qituvchi o'zining maqsadiga bo'lgan ishonchini ko'rgandagina odamlar unga murojaat qilishadi. Shundagina talabalar, boshqa hamkasblar unga ergashadilar, unga o'xshashga intiladi, havas qiladi. Mabodo asosiy maqsad yo'lida harakat qilinsa, ma'muriy xodim bilan ham kelishish mumkin.

## **Xulosa**

Qanday qilib toliqishdan qutulish mumkin? Rol o'ynash kerak emas, samimiy bo'lish kerak. Buni yangi o'qitish usullarini o'rganishga nisbatan passiv munosabat bilan aralashtirish kerak emas. Albatta, o'qituvchi ikkilanishi, o'z qulaylik hududidan chiqib ketishi va natijada yangi narsalarni o'rganishi kerak. U o'zi ichki mohiyatini topishda o'qituvchi o'zining ta'lim falsafasini tushunishi

va o'zining professional sohasida eng yaxshisi bo'lish uchun qo'lidan kelganini qilishi kerak. Zero, o'qituvchining toliqishiga qarshi ko'rilgan eng samarali usul – bu iloji boricha yorqinroq yonishdir.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining niashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tgan Alisher Navoiyning quyidagi fikrini eslashni lozim topdik: “Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin...” [Alisher Navoiy, 1966.]

### **Adabiyotlar:**

Alisher Navoiy. 1966. *Mahbub ul-qulub*. Asarlar. O'n besh tomlik. 13 tom. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 192-193-betlar.

Kadirova, X.B. 2022. *O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ta'lim sifatini belgilovchi omillar* // International scientific journal of Biruni. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-xorijiy-til-sifatida-o-qitishda-ta-lim-sifatini-belgilovchi-omillar>

Parenting, Motivation, and the Development of Children's Coping // Ellen Skinner and Kathleen Edge / [https://books.google.co.uz/books?id=Pa56zLQFealC&pg=PA77&lpg=PA77&dq=Skinner,+Kethlin+Edge&source=bl&ots=9Yymasdqz9&sig=ACfU3U3Hb1UacANac0\\_jllp9Gj90Po3mhw&hl=ru&sa=X#v=onepage&q=Skinner%20Kethlin%20Edge&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=Pa56zLQFealC&pg=PA77&lpg=PA77&dq=Skinner,+Kethlin+Edge&source=bl&ots=9Yymasdqz9&sig=ACfU3U3Hb1UacANac0_jllp9Gj90Po3mhw&hl=ru&sa=X#v=onepage&q=Skinner%20Kethlin%20Edge&f=false)

В поисках структуры совладания: обзор и критика систем категорий для классификации способов совладания // Эллен Скиннер, Кэтлин Эдж, Джеффри Альтман, Хейли Шервуд / DOI: 10.1037/0033-2909.129.2.216;

Размышления о преодолении трудностей и развитии на протяжении всей жизни // Эллен Скиннер, Кэтлин Эдж / <https://doi.org/10.1080/016502598384414>

Эллен, Скиннер, Кэтлин Эдж, Джеффри Альтман, Хейли Шервуд // В поисках структуры совладания: обзор и критика систем категорий для классификации способов совладания / DOI: 10.1037/0033-2909.129.2.216;

Эллен, Скиннер, Кэтлин Эдж // Размышления о преодолении трудностей и развитии на протяжении всей жизни / <https://doi.org/10.1080/016502598384414>

# Personality of the teacher and creative approach in teaching uzbek as a foreign language

Khurshida Kadirova<sup>1</sup>

## Abstract:

The role of the teacher as a person is considered to be the most important factor in language education. The article describes the reasons for the disappearance of the teacher's personality and ways to get rid of it. It is analyzed how much the teacher's mental state affects the effectiveness of the lesson, how much it reduces his reputation and professional sincerity. The signs of happy teachers are also listed. He gives real life examples. Commenting on the idea that the teacher should be an actor, the importance of maintaining sincerity was emphasized.

**Key words:** *teacher burnout, actor, teamwork, happy teachers, pedagogical philosophy.*

## References:

- Alisher Navoi. 1966. Mahbub ul-Qulub. Works. Fifteen roofs. 13 roofs. — Tashkent, Literary Publishing House, pp. 192-193.
- Kadirova, Kh.B. 2022. Factors determining the quality of education in teaching Uzbek as a foreign language // International scientific journal of Biruni. #2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-khorijiy-til-sifatida-o-kyutuda-lim-sifatini-begilovchich-millar>
- Parenting, Motivation, and the Development of Children's Coping // Ellen Skinner and Kathleen Edge / [https://books.google.co.uz/books?id=Pa56zLQFeaIC&pg=PA77&lpg=PA77&dq=Skinner,+Kathlin+Edge&source=bl&ots=9YymasdQz9&sig=ACfU3U3Hb1UacANac0\\_jllp9Gj90Po3mhw&hl=ru&sa=X#v=onepage&q=Skinner%2C%20Kathlin%20Edge&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=Pa56zLQFeaIC&pg=PA77&lpg=PA77&dq=Skinner,+Kathlin+Edge&source=bl&ots=9YymasdQz9&sig=ACfU3U3Hb1UacANac0_jllp9Gj90Po3mhw&hl=ru&sa=X#v=onepage&q=Skinner%2C%20Kathlin%20Edge&f=false)
- V research structure of governance: overview and cri tique of the system category for classification of ways of governance // Ellen Skinner, Kathleen Edge, Jeffrey Altman, Haley Sherwood / DOI: 10.1037/0033-2909.129.2.216;

---

<sup>1</sup> Kadirova Khurshida Batirovna – Candidate of Philological Sciences, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor of the Department of Uzbek Language Education in Foreign Language Groups.

**E-mail:** [kadirova@navoiy-uni.uz](mailto:kadirova@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0001-5194-7155

**For reference:** Kadirova, Kh. 2022. "Personality of the teacher and creative approach in teaching uzbek as a foreign language". *Uzbekistan: language and culture. Applied philology*. 2(5): 17-25.

Размышления о преодолении трудностей и развитии на протяжении всей жизни // Ellen Skinner, Kathleen Edge / <https://doi.org/10.1080/016502598384414>

Ellen, Skinner, Kathleen Edge, Jeffrey Altman, Haley Sherwood // V poiskakh struktury sovladania: obzor i kritika sistem kategoriy dlya klassifikatsii sposobov sovladania / DOI: 10.1037/0033-2909.129.2.216;

Ellen, Skinner, Kathleen Edge // Reflections on coping and development throughout life / <https://doi.org/10.1080/016502598384414>